



STAGES OF EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF PRINCIPLES OF LEGAL PROFESSION IN UZBEKISTAN

Nodirbek K. Jalilov

Deputy Head of Continuing Education Department

Tashkent State Law University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: jnbek93@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: advocacy, principles, independence, equality, corporatism, development trends, jurisprudence, legal protection, development.

Received: 12.08.24

Accepted: 14.08.24

Published: 16.08.24

Abstract: In this article, the stages of the emergence and development of the principles of advocacy in Uzbekistan are discussed in detail. Among them, the history of the development of advocacy in Uzbekistan, the formation and status of advocacy principles in these periods are described. Also, the opinions of local and foreign scientists on the history of the development of the principles of advocacy, as well as relevant conclusions and suggestions based on these opinions, are presented.

O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA FAOLIYAT PRINSPLARINING VUDUJGA KELISHI VA RIVOJLANISHI BOSQICHLARI

Nodirbek K. Jalilov

Uzluksiz ta’lim boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari

Toshkent davlat yuridik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: jnbek93@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: advokatlik, prinsplar, mustaqillik, tenglik, korporativlik, rivojlanish tendensiyalari, huquqshunoslik, huquqiy himoya, rivojlanish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda advokatura faoliyat prinsplarining vudujga kelishi va rivojlanishi bosqichlari haqida batafsil to‘xtab o‘tilgan. Shu jumladan, O‘zbekistonda advokaturaning rivojlanish tarixi, ushbu davrlarda advokatlik prinsplarining shakllanishi hamda holati haqida bayon etilgan. Shuningdek, advokatlik faoliyati prinsplarining rivojlanish tarixi bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari hamda ushbu fikrlardan kelib chiqqan

holda tegishli xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРИНЦИПОВ АДВОКАТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Нодирбек К. Джалилов

Заместитель начальника отдела непрерывного образования

Ташкентский государственный юридический университет

Ташкент, Узбекистан

E-mail: jnbek93@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: адвокатура, принципы, независимость, равенство, корпоративизм, тенденции развития, юриспруденция, правовая охрана, развити

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены этапы зарождения и развития принципов адвокатуры в Узбекистане. Среди них описана история развития адвокатуры в Узбекистане, становление и состояние принципов адвокатуры в эти периоды. Также представлены мнения отечественных и зарубежных ученых об истории развития принципов адвокатуры, а также соответствующие выводы и предложения, основанные на этих мнениях.

KIRISH

Hozirgi zamon huquqi tizimida inson huquq va erkinliklari hamda ularni himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu masalalarni hal elishda advokaturaning muhim o'rin tutishi inson huquqlari bilan bog'liq xalqaro hamda milliy huquq hujjatlarda tobora aniq aks ettirilmoqda.

Bizga ma'lumki, huquqshunoslik kasblari orasida advokatura sohasi alohida o'rin tutadi. Advokatura va uning faoliyat prinsplarini mamlakatimizda rivojlanish tarixini bilish, ushbu sohani yanada puxta o'rganish, har tomonlama tahlil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastavval, advokaturaning kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'rta asrlarda, masalan, cherkovlar himoya huquqidan foydalanishgan – ularning suddagi vakillari dastlabki paytlarda rahbar ruhoniylar bo'lishgan bo'lsa, keyinchalik qonunlarga tushunuvchi ruhoniylar ichidan olingan begona shaxslar ham vakillik qilishgan. “Advokat” so'zi lotin yozuvidan olingan va ikki xil ma'noga ega:

- a) sud ishlari bo'yicha ishonchli vakil, suddagi himoyachi;
- b) nimaningdir yoki kimningdir himoyasi uchun og'zaki yoki yozma ravishda chiquvchi

Yuridik kasbning kelib chiqishi, uning turli tarixiy davrlardagi amaliy tajribasini o'rganish nafaqat o'tmishdagi xatolar takrorlanishiga yo'l qo'ymaydi, balki advokatlik maqomining, shu jumladan, uni tamoyillarining uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Advokatura va faoliyatini tashkil etish tamoyillari, ularning mohiyati va maqsadini belgilovchi asosiy mezonlar mazkur davr kontseptsiyasi hamda siyosiy tizimiga mos ravishda doimiy ravishda o'zgartirilib borildi.

ASOSIY QISM

Advokatlik kasbining ahamiyati o'sha davrning ko'plab taniqli huquqshunoslari tomonidan yuqori baholangan. E.V.Vaskovskiy yozganidek, "Yevropa fani tomonidan ishlab chiqilgan prinsplar bo'yicha yangi tizim va sud ishlarini yuritishning joriy etilishi bilan adolatning avvalgi kamchiliklari va yaralari ularni yuzaga keltirgan tizim bilan birga afsonalar maydoniga chekindi. Yangi institutlar "tezkor, adolatli va rahmdil" sud g'oyasini o'z kuchiga ko'ra amalga oshirdi. Odil sudlovni amalga oshirish ilgari erishib bo'lmaydigan cho'qqilarga ko'tarildi, jamiyat birinchi marta o'z huquqlarini munosib va ishonchli qo'llarda himoya qilishni ko'rdi. Sud protsessida advokatlarning muhim roli ham G.B. Sliozberg: "Bizning barcha sud amaliyotimiz nafaqat sudyalalar, balki advokatlar, ularning yordamchilari yoki yordamchi adliya organlari faoliyatining natijasidir. Qonunimiz uchun juda muhim bo'lib qolgan butun kassatsiya amaliyoti advokaturaning faol, deyarli doimiy ishtirokida ishlab chiqilgan".

O'zbekiston SSR tashkil etilganidan so'ng, respublikaning barcha hududlari uchun yagona bo'lgan adliya organlarining izchil tizimini yaratish bo'yicha ish olib borildi. Bu to'la ravishda advokaturaga ham tegishlidir. 1925-yilda O'zSSR Sovetlari MIQ respublika Adliya xalq komissariati to'g'risidagi Nizomni qabul qilib, unda jumladan, Adliya xalq komissariati himoyachilar hay'atlari faoliyatiga rahbarlik qilishi ko'zda tutilgan edi.

Yana shunisi e'tiborga loyiqki, advokaturaning shakllanishining ushbu tarixiy bosqichida advokatura prinsiplari hali to'g'ridan-to'g'ri qonun hujjatlarida mustahkamlanmagan edi.

Davrning hamda mamlakatdagi qonunchilik o'zgarishi davomida advokatlik hamda ushbu sohaning o'zagi bo'lmish uning prinsplari ham o'zgarish hamda rivojlanishda bo'lib borgan.

Sobiq Sovet advokaturasining yuqorida ko'rsatilgan rivojlanish bosqichlari O'zbekiston SSR advokaturasiga ham xos hisoblanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston SSRda advokatura hamda uni prinsiplarining tarixi o'ziga xos bo'lib, davlatning tarixiy rivojlanishi muayyan shart-sharoitlarining xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi.

M.X.Rustamboyev ta'kilashicha, Turkiston o'lkasida, shuningdek, Buxoro amirligida, Xorazm xonligida shariat (musulmon huquqi) va odat (odat huquqi) asoslarida faoliyat ko'rsatgan qozilar va biy feodal sudlari jinoyat va fuqarolik ishlarini advokatlarning ishtirokisiz ko'rganlar.

O'zbekistonda advokatura sohasini rivojlanishining eng muhim bosqichi bu 1926-yilga to'g'ri kelib, O'zSSR Jinoyat-protsessual kodeksining qabul qilinishi hamda kuchga kiritilishida

aks etadi. Unga ko'ra, himoyalani sh huquqi, himoyachilarning sudda ishtirok etishi majburiy bo'lgan holatlar va shu kabi mustahkamlandi.

Ma'lumki, 30-40-yillarda bir qator sabablarga ko'ra, advokatura faoliyatining samaradorligi, ayniqsa, jinoyat ishlari bo'yicha, pasaygan edi. Bu sabablardan biri sud xodimlari, adliya xalq komissarligi rahbarlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarni advokatning jinoyat-sudlov ishlarini yuritishdagi ishtirokiga salbiy munosabatidir. Bunga ayniqsa, SSSR MIQning 1934-yil 1-dekabrda va 1937-yil 14-sentabrda qarorlari o'ta salbiy ta'sir ko'rsatib, bu qarorlar terroristik tashkilotlar va terroristik aktlar, kontrrevolyutsion zararkunandalik va qo'poruvchilik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudlov ishlarini yuritishning alohida tartibini belgilab berdi. Mazkur ishlarning sudda ko'rilishi ancha jo'nlashtirilib, jumladan, ayblov va himoya ishtirok etmas edi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilingach, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shu jumladan advokatura tizimida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi.

Bir guruh olimlar tomonidan O'zbekistonda advokatura institutining rivojlanishini turli mezonlar bo'yicha bosqichlarga bo'lishgan. Masalan, O'zbekiston hududida advokatura institutining rivojlanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lishgan:

yuridik yordam institutining yuzaga kelishi (muftilar – musulmon huquq bilimdonlari sifatida);

O'zbekistonda advokatura institutining yuzaga kelishi; advokatura instituti tashkiliy-huquqiy asoslarini isloh qilish; mustaqil O'zbekistonda advokatura institutini isloh qilish; advokatura institutini yanada isloh qilish.

O'zbekiston hududida advokatura institutining rivojlanishini shartli ravishda quyidagicha tasvirlash mumkin.

Birinchi bosqich – yuridik yordam institutining yuzaga kelishi (muftilar – musulmon huquq bilimdonlari sifatida)

Ikkinchi bosqich – O'zbekistonda advokatura instituti yuzaga kelishi

Uchinchi bosqich – advokatura instituti tashkiliy-huquqiy asoslarini isloh qilish bosqichi

To'rtinchi bosqich – mustaqil O'zbekistonda advokatura institutini isloh qilish bosqichi

Beshinchi bosqich – advokatura institutini yanada isloh qilish bosqichi

Bizga ma'lumki, advokatlik faoliyatini davlat organlari, avvalo adliya organlari va sudlardan, shuningdek, mahalliy ijroiya organlaridan erkinligi va mustaqilligini kengaytarib borish asosiy masalardan biri hisoblanadi. Qonunchilikdagi islohatlar hamda tegishli ilmiy izlanishlar natijasida malakali yuridik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirishning yangi jihatlar paydo bo'lmoqda.

Hozirda, O'zbekiston Respublikasida advokatura fuqarolik jamiyatining asosiy va muhim institutlaridan biri bo'lib, uning zimmasiga yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yuridik

yordam ko'rsatish bilan bog'liq Konstitutsiyaviy vazifa yuklatilgan. Shu bois ham Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq sud-huquq tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblangan advokatura institutini isloh qilish, demokratik prinsiplarga asoslangan kuchli, mustaqil advokatura tizimini barpo etishga alohida va doimiy e'tibor qaratib kelindi.

Yurtimiz siyosiy hayotida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan yangilanishlar advokatura tizimini ham zamon bilan hamnafas rivojlantirish, qonunchilik huquqiy bazasini takomillashtirib borishni talab etmoqda. Bundan tashqari dunyo miqyosida ro'y berayotgan modernizatsiyalashuv jarayoni mamlakatimiz aholisini ham qamrab olayotganligi, oxirgi 4-5 yil davomida jadal olib borilayotgan demokratik islohotlar tufayli fuqarolar ongining o'sib borishi va huquqiy madaniyatining yuksalishi oqibatida ular tomonidan siyosiy-huquqiy faollikning kuchayib borishi hamda o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qilish va advokat yordamidan foydalanishga bo'lgan ehtiyojning o'sib borishi singari holatlar advokaturani zamon talablariga javob beradigan asosda rivojlantirish masalasini keltirib chiqarmoqda. Umuman olganda, advokatura institutining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi uzoq tarixga borib tarqaladi.

Hozirda Yangi O'zbekiston sharoitida "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan ustuvor tamoyil asosida islohotlar davom etilmoqda. Ushbu ezgu maqsadlar asosida xalqimiz yangidan-yangi istiqbollari, kelgusi muhim yo'nalishlar belgilab berilmoqda. Mazkur ulug'vor maqsadlardan biri sifatida advokatura institutini har tomonlama rivojlantirish, advokat mustaqilligini ta'minlash, inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hamda malakali huquqiy xizmatlar ko'rsatishning yangi bosqini yaratishni ko'rish mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashning samarali institutlaridan biri sifatida advokaturaning o'rni va ahamiyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, advokatura institutining va advokatlarning mustaqilligini ta'minlashga, sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida taraflarning tortishuv prinsipi asosida ishlarni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rildi, advokatlarning o'z professional faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur qonunchilik bazasi yaratildi.

Mamlakatimiz siyosiy hayotida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar advokatura tizimini ham zamon bilan hamohang tarzda rivojlantirish, qonunchilik huquqiy bazasini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan to shu kungacha jamiyat hayotining barcha sohalari kabi sud-huquq tizimining ajralmas qismi bo'lgan advokatura tizimi ham uzluksiz ravishda rivojlanib, takomillashib bordi.

XULOSA

Yuqorida keltirib o‘tilgan mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari hamda O‘zbekistonda advokatura faoliyat prinsplarining vujudga kelish va rivojlanish bosqichlari bo‘yicha olib borilgan tegishli izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, huquqiy himoyaning bir shakli sifatida advokatlik va uning faoliyat prinsiplari dastlabki davrlarda yetarli darajada rivojlanmasdan, faqatgina o‘gzaki va yozma ravishda huquqiy madad berish bilangina cheklanib qolgan.

Ikkinchidan, dastlabki davrlarda advokatlik professional tarzda bo‘lmasdan, ma’lum huquq berilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Ya’ni advokatlikning eng muhim demokratik prinsiplaridan biri bo‘lmish korporativlik prinsipi mavjud bo‘lmagan. Qonunchilik tizimini rivojlanishi natijasida, xususan 1918-yil 7-martdagi Sudlar to‘g‘risidagi 2-Dekretga ko‘ra advokatlik jamiyatlarining huquqiy maqomi mustahkamlanib, ushbu prinsipning boshlang‘ich shakllari namoyon bo‘la boshladi.

Uchinchidan, advokatlik faoliyati prinsiplarining eng muhimlaridan bo‘lmish mustaqillik prinsipi ham yetarli darajada bo‘lmagan. Advokatlar ma’lum bir huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarga buysungan holda, shuningdek himoya va ayblovning yakdilligi asosida faoliyat yuritib kelgan.

To‘rtinchidan, tenglik, maxfiylik, qasamyodga sodiqlik va shu kabi boshqa prinsplar ham demokratik tarzda bo‘lmasdan, bular o‘z navbatida advokatlik faoliyatining mukammal bajarilishiga, inson va fuqarolarning huquq va manfaatlarini yetarlicha himoya qilinishda yetarlicha muammolarni keltirib chiqargan.

Ta’kidlashimiz lozimki, 2023-yilda Yangi O‘zbekistonda xalq muhokamasi orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 141-moddasida advokatlik prinsplari alohida keltirilib, unga ko‘ra advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanishi ta’kidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYATLAR RO‘YXATI

1. Rustambayev M.X., Nikiforova E .N Huquqni muhofaza qilish organlari. Darslik - T.: TDYuI, 2005. - R. 475.
2. Boykov A.D. Капинус N.I. Адвокатура России: Учебное пособие.- М.:ИМиП, 2000.
3. Васьковский Е.В. Организация адвокатуры. Т. 1. Исследование принципов организации адвокатуры. СПб.: Типография П.П. Сойкина, 1893. С. 384.
4. Слиозберг Г.Б. Адвокатура за 25 лет // Журнал гражданского и уголовного права. 1889. №9. С. 32.
5. Саркисянц Г.П. Адвокатура советского Узбекистана. -Т.: FAN, 1972. - В. 15-21

6. Гуценко К.Ф., Ковалёв М.А. Правоохранительные органы. Учебник для юридических ВУЗов и факультетов. Изд. 6-е, перераб. и дополн./ Под ред. К.Ф.Гуценко. М.: ЗЕРЦАЛО-М, 2001. -В.330- 331.
7. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: TDYU, 2019. - В. 39.
8. “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali 2181-4325 | <https://ilmfanvatalim.uz/> | № 11/Yusupov Rahimboy Bekbergan o‘g‘li Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi Kariyeva Laylo Sardor qizi Abdirimova Maftuna Umidbek qizi Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘quvchilari.
9. Inagamova M.M., Ro‘ziyeva N.N. Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari, Journal of New Century Innovations. Volume– 36_Issue-1_September_2023.B.-182-186.
10. N.K. Jalilov. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida advokatura instituti salohiyatini tubdan oshirish masalalari.
11. Kasimova A.A Rol jеnщины v совremennoy науке Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234.